

## **“O‘ztemiryo‘Inazorat” inspeksiyasi Axborot xizmati boshlig‘ining bayonoti!**

Shu kunlarda ayrim fuqarolar orasida muammolarning qonuniy yechimini qidirish o‘rniga, jamoatchilik e’tiborini tortish, o‘zlarini jabrdiyda qilib ko‘rsatish holatlari uchrab turibdi. «Qarshi mintaqaviy temir yo‘l uzeli» unitar korxonasiga qarashli Ayratom temir yo‘l bekti hududida bir guruh fuqarolar temir yo‘l ustiga yig‘ilganligi aks etgan video ijtimoiy tarmoqlarda tarqaldi. Holat yuzasidan munosabat bildirildi va biz tafsilotlarga qaytmoqchi emasmiz. Ammo o‘ylantiradigan jihat shundaki, bir muammoni bartaraf etish maqsadida undan o‘n karra ziyod xavfli bo‘lgan muammoni keltirib chiqaradigan yo‘lni tanlash orqali nimaga erishmoqchi edik? Hammasidan Achinarlisi, ushbu holatga katta avlod vakillari boshchilik qilgani bo‘lmoqda.

Yoshlarga o‘rnak bo‘lishi kerak bo‘lgan ota-onalar ushbu holatni farzandlari ham takrorlashlari mumkinligini nahotki o‘ylashmasa?! Katta tezlikda harakatlanadigan poyezd to‘satdan to‘xtaganda tormoz uzunligi 1000 – 1200 metr masofaga ba’zan undan ham uzoqroqqa cho‘zilishi mumkin. Bu esa mashinist oldindan ko‘rib qolgan taqdirda ham fojianing oldini olishga ulgura olmasligini anglatadi. Temir yo‘l hududida faqat belgilangan joylardan ehtiyyotkorlik bilan qoidalarga amal qilgan holda o‘tish lozim. Shu o‘rinda barcha fuqarolardan vujudga kelgan ijtimoiy yoki boshqa turdagи muammolarni, mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda qonuniy hal etishga chaqiramiz. O‘zingiz va o‘zgalar hayotini qadrlang!

**“O‘ztemiryo‘Inazorat” inspeksiyasi  
Axborot xizmati**